



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№3(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,  
2-mart, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy<br>emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....                                    | 18  |
| <i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>                                                                                                                |     |
| O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida .....                                                    | 22  |
| <i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>                                                                                                                    |     |
| Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....                                                                          | 30  |
| <i>Abdullayeva Sh. H.</i>                                                                                                                               |     |
| Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi .....                                                    | 33  |
| <i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>                                                                                                              |     |
| Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga<br>metodik yondashuvlar.....                                 | 37  |
| <i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>                                                                                                                   |     |
| Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari .....                                                             | 42  |
| <i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>                                                                                                           |     |
| O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va<br>vositalardan foydalanishning samaradorligi.....                      | 49  |
| <i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>                                                                                                             |     |
| Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari .....                                             | 55  |
| <i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>                                                                                                                     |     |
| Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish .....                                                            | 59  |
| <i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>                                                                                                                    |     |
| Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda<br>raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish..... | 63  |
| <i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>                                                                                                                     |     |
| Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....                                                        | 68  |
| <i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>                                                                                                                        |     |
| Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....                                                                           | 71  |
| <i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>                                                                                  |     |
| Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar .....                                                                 | 74  |
| <i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>                                                                                                                        |     |
| Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli .....                                                                           | 77  |
| <i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>                                                                                                                |     |
| Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri .....                                               | 82  |
| <i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>                                                                                                                |     |
| Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli .....                                                      | 86  |
| <i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>                                              |     |
| Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari .....                                                           | 90  |
| <i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>                                                                                                                   |     |
| Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini<br>shakllantirish metodikasi.....                                   | 95  |
| <i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>                                                                                                                |     |
| Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi .....                                             | 98  |
| <i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>                                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....                                              | 102 |
| <i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>                                                                                                                   |     |
| Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi .....                                                                                          | 106 |
| <i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....                           | 110 |
| <i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>                                                                                                                      |     |
| O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari .....                                     | 114 |
| <i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>                                                                                                                  |     |
| Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish .....                                                                   | 118 |
| <i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>                                                                                                               |     |
| Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari .....                                                          | 121 |
| <i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>                                                                                                                     |     |
| Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ..... | 125 |
| <i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>                                                                                                                      |     |
| Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure .....                                                                          | 129 |
| <i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>                                                                                       |     |
| Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....        | 133 |
| <i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>                                                                                                                        |     |
| Понятие эмоционально-оценочной лексики.....                                                                                                               | 137 |
| <i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>                                                                                       |     |
| Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....                                                          | 140 |
| <i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>                                                                                                                      |     |



## INSULT BILAN XASTALANGAN BEMORLARDA NUTQ BUZILISHLARI KORREKSIYASIGA YONDASHUVLAR

Maxkamova Laylo Majidovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0006-4762-7160

**Annotatsiya:** Maqolada insult bilan kasallangan bemorlarda nutq buzilishlarini korreksiya qilishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Nutq faoliyatining neyropsixologik mexanizmlari, uning bosh miya funksional tizimlari bilan bog'liqligi hamda afaziya shakllarining ilmiy tasnifi yoritiladi. Tadqiqotda nutqni tiklash jarayoniga doir neyropsixologik va psixolingvistik yondashuvlar, xususan, nutqning funksional tizim sifatidagi talqini, miya bloklari nazariyasi va neyropplastiklik tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** insult, afaziya, nutq faoliyati, neyropsixologik yondashuv, funksional tizimlar nazariyasi, neyropplastiklik, reabilitatsiya.

**Abstract:** The article examines the theoretical and methodological foundations of speech disorder correction in patients after stroke. It analyzes the neuropsychological mechanisms of aphasia, the principle of systemic-dynamic localization of higher mental functions, and the relationship between speech activity and the functional systems of the brain. Neuropsychological, psycholinguistic, and neurophysiological approaches to understanding speech recovery processes are summarized.

**Key words:** stroke, aphasia, speech activity, systemic-dynamic localization, neuropsychological approach, functional systems theory, neuroplasticity, rehabilitation.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретико-методологические основы коррекции речевых нарушений у пациентов, перенёсших инсульт. Освещаются нейropsychологические механизмы афазии, системно-динамическая локализация высших психических функций и взаимосвязь речевой деятельности с функциональными системами мозга. Обобщаются нейropsychологический, психолингвистический и нейрофизиологический подходы к пониманию процессов восстановления речи.

**Ключевые слова:** инсульт, афазия, речевая деятельность, системно-динамическая локализация, нейropsychологический подход, теория функциональных систем, нейропластичность, реабилитация.

### KIRISH

Insult xastaligining eng keng tarqalgan asoratlaridan biri nutq buzilishlari sanaladi. Sababi, nutq eng oliy psixik funksiyalardan biri bo'lib, u bosh miyaning turli bo'limlari tomonidan faol ravishda regulatsiya qilinadi. Bosh miya yarimsharlarining po'stloq qismi nutqni tushunish va javob qaytarish uchun to'g'ri gap konstruksiyasini tuzishga javob beradi. Po'stloq osti qismi esa artikulyatsion apparat organlarining tonusini, harakatini va koordinatsiyasini nazorat qilib, uning to'g'ri faoliyatini ta'minlaydi. Afaziyaning klinik ko'rinishini kuzatgan bemorlarda bosh miyaning turli qismlariga qon quyilishi natijasida afaziyaning turli shakllari birgalikda namoyon bo'lishini qayd etdik. Xususan, bemorlarda kompleks motor afaziya yoki total afaziya yaqqol namoyon bo'ldi. Ba'zi bemorlarimizda afaziya bilan birgalikda dizartriya holati ham yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur holat ko'pincha bosh miya chap yarimsharining po'stloq qismi zararlangan bemorlarda namoyon bo'lib, dizartriya tashxisi qo'yilgan bemorlarda yashirin afaziya mavjudligi ham qayd etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, insult xastaligidan keyin kasallik asorati sifatida afaziya namoyon bo'lgan bemorlarning 45 % da kasallikdan keyingi reabilitatsion davrning ilk olti oyida afaziyaning yaqqol namoyon bo'luvchi alomat-lari yo'qolganligi kuzatilgan. Mazkur ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, agar bemorlarda nutq buzilishlari kuzatilsa, kasallikning o'tkir davridayoq nutq buzilishlarini korreksiya qilishni kechiktirmasdan boshlash zarur, degan xulosaga kelish mumkin. Albatta, bunda bemorlarning umumiy ahvolidan kelib chiqqan holda harakat qilinadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda o'zbek olimlari tomonidan insult xastaligi natijasida vujudga keluvchi nutq buzilishlarini reabilitatsiya qilishga doir turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Z.R. Ibodullayev tadqiqotlarida insult xastaligi bilan og'rikan bemorlar reabilitatsiyasida psixologik va ijtimoiy-psixologik omillarning o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Muallif bunda bemorning psixoemotsional holatining o'ziga xosligi, uning temperamenti va xarakter xususiyatlari, "shifokor–bemor", "bemor–uning yaqinlari" munosabatlari ham bemorning kasallikdan keyingi tiklanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Insult kasalligida bemorlarning neyropsixologik xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlarida u insult bosh miyaning chap yarim sharida rivojlansa, tananing o'ng tomonidagi gemiparez va gemianesteziya afaziyalar bilan birgalikda namoyon bo'lishini, insult o'ng yarim sharda kuzatilganda esa tananing chap tomonida gemiparez va gemianesteziya yuzaga kelishini hamda bu holat o'naqaylarga qaraganda chapaqaylarda tezroq tiklanishini ilmiy jihatdan isbotlagan.

I.K. Jumaniyozova tadqiqotlarida insultga chalingan bemorlarning psixoemotsional holatlari o'rganilgan. Kasallikka munosabat turlari bilan bemorning emotsional holati xususiyatlari o'rtasidagi aloqadorlik mazkur ilmiy izlanishda ochib berilgan. Insult bilan xastalangan bemorlar reabilitatsiyasida psixosotsial omillar ahamiyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko'p emasligini e'tirof etish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasallik reabilitatsiyasini uch bosqichga bo'lgan holda amalga oshirish va har bir bosqichda tegishli metodikalarni qo'llash samarali natija beradi. Xususan, A.R. Luriyaning nazariyasiga ko'ra, bosh miyaga ta'sir etishni birinchi blokdan boshlash va bemorlarda sensor-motor faoliyatga qaratilgan mashqlarni qo'llash samarali natija beradi, deya olamiz. Bunda bemorlarning taktil sezgisi bilan ishlash va unga ta'sir ko'rsatish korreksion jarayonning boshlang'ich kunlaridayoq qo'llanilishi lozim. Bundan tashqari, miyacha stimulyatsiyasi metodini qo'llash, bemorlarda muvozanat apparatini yaxshilash va mustahkamlash amaliyotini olib borish ham zarur. Nutq markazlari va mayda motorika markazlarining bosh miyada yonma-yon joylashganligini hisobga olgan holda, mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar nutq korreksiyasiga mo'ljallangan metodikalar bilan birgalikda qo'llanilishi samarali sanaladi.

Masalan, bemorlarda literal parafaziya namoyon bo'lsa, bemor bilan ishlash jarayonida undan ma'lum bir qo'l harakatlarini bajarishni nutq mashqlari bilan birgalikda amalga oshirishi iltimos qilinadi. Bemorga "olma" so'zini aytish so'ralib, mazkur jarayonda yengil qo'l harakatlarini bajarishi mumkin. Yoki bemorda miyacha stimulyatsiyasi metodini qo'llash jarayonida bemor bilbord doskasiga chiqariladi va shu jarayonda bemordan ma'lum so'zlarni takrorlash so'raladi. Ba'zi bemorlarda afaziya bilan birgalikda tovush buzilishlari – disfoniya holati kuzatilishi mumkin.

Umuman olganda, insult xastaligidan keyingi nutqning tiklanish jarayoni bosh miyaning neyropplastik xususiyatiga bog'liq jarayondir. Mazkur jarayonni stimulyatsiya qilish uchun eng muhim omil takrorlash sanaladi. Bemor tomonidan ma'lum bir so'z yoki tovush qancha ko'p marotaba mashq qilinsa, shuncha yaxshi talaffuz qilinadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda reabilitatsiya jarayoni quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi mumkin:

*I bosqich* kasallikning o'tkir davrida – kasallik boshlangandan to 4 haftagacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda kasallik asoratlari to'liq namoyon bo'ladi. Bu davr bemor nutqini tiklash uchun metodikalarni qo'llashda eng samarali davr sanaladi va aynan shu davrda nutq buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda kompleks yondashuv imkoniyati mavjud bo'ladi.

*II bosqich* kasallikdan tuzalishning ilk davrlari – kasallik yuzaga chiqqanidan to 2 oygacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda bemorning emotsional barqarorligini ta'minlash asosiy maqsad qilib olinadi. Bundan tashqari, bemorni kasallikdan keyingi munosabatlar va jamiyatdagi statusida vujudga keluvchi o'zgarishlarni qabul qilishga tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bemor bilan reabilitatsiya jarayonini haftasiga 5 kungacha tashkil etish va texnikalarni bajarish vaqtini 15-30 daqiqa qilib belgilash lozim.

*III bosqich* kasallikdan keyingi 1 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Psixologning asosiy vazifasi bemorni o'z "meni"ni qabul etishga tayyorlash (kasallik asorati sifatida namoyon bo'lgan turli defektlar, kognitiv buzilishlar bilan birga), oilaga adaptatsiya jarayonini barqarorlashtirish, oila a'zolari bilan ishlash hamda bemorga hayotda yangi maqsad va mo'ljall olishga ko'maklashishdan iboratdir. Agar korreksiya jarayoni ushbu davrda amalga oshirilayotgan bo'lsa, bemorning kasbi va kundalik odatlaridan kelib chiquvchi korreksion texnikalarni qo'llash lozim. Mazkur davrda korreksiya jarayonida bajariluvchi texnikalar bemor bilan birgalikda yarim

soatdan bir soatgacha bo'lgan muddatda amalga oshirilishi muhim sanaladi. Sababi aynan shu davrda bemor nutqidagi buzilishlar bartaraf etilmasa, unda mazkur defekt odatiy holatga aylanishi mumkin va ba'zi bemorlarda nutqni avvalgi holatiga qaytarish birmuncha qiyin bo'lishi mumkin. Ba'zi bemorlarda esa nutq avvalgi holatiga qaytmasligi ham ehtimoldan xoli emas.

*IV rezidual bosqich* – kasallik boshlangandan 1 yildan keyingi muddatlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda kundalik hayotga va jamiyatga adaptatsiya jarayoni davom etadi. Mazkur davr nutq korreksiyasiga urinishlarning eng kech muddati sanaladi. Nutq buzilishlarini tuzatishga bo'lgan harakatlar ko'pincha bemorlar tomonidan qarshilikka uchraydi va qo'llaniluvchi metodikalar o'z samarasini bermasligi mumkin. Bugungi kunda rezidual davrda ham afaziyasi saqlanib qolgan bemorlarga bosh miyaga bevosita zaryad ta'sir ettirish usulini qo'llash bo'yicha bir muncha amaliyotlar amalga oshirilib ko'rilayotgan bo'lsa-da, mazkur amaliyotning oliy psixik funksiyalar faoliyatiga foydasidan ko'ra zararli oqibatlari ko'proq ekanligi borasida bahs-munozaralar davom etmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, reabilitatsiya jarayonini qaysi davrda tashkil etilishidan qat'i nazar, bosh miya birinchi blokini stimulyatsiya qilishga mo'ljallangan texnikalar eng birinchi o'rinda qo'llanilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologik reabilitatsiya jarayonini tashkil etish quyidagi prinsiplarga tayangan holda amalga oshirilishi muhimdir:

1. Shaxsning reabilitatsiya jarayonidagi yetakchi roli – bunda shaxs reabilitatsiyaning har bir bosqichida asosiy rol o'ynaydi hamda adaptatsiya va korreksiya jarayonini amalga oshirishda faol ishtirok etadi.
2. Individuallik – reabilitatsiya jarayoni har bir bemorning umumiy ahvoli va emotsional holatidan kelib chiqqan holda individual tarzda tashkil etilishi lozim.
3. Reabilitatsiya jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi – psixologik reabilitatsiyaning har bir bosqichi ma'lum maqsadlarga qaratilgan bo'lishi lozim. Masalan, shaxsning kasallikka nisbatan munosabatini, mikro va makrosotsiumga nisbatan munosabatini o'zgartirishga, o'z-o'zini qabul qilishni shakllantirishga yoki ma'lum bir kognitiv buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi mumkin.
4. Psixologik reabilitatsiya jarayonining uzluksizligi – kasallikning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, psixologik reabilitatsiya jarayoni uzluksiz amalga oshirilishi lozim (faqatgina bemorning og'ir holati bundan mustasno).

Bemorlarda reabilitatsiya jarayonini tashkil etish bemorning kasallikni boshidan kechirgan vaqt oralig'iga binoan belgilanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Оппель Е. В. Восстановление речи после инсульта. – СПб.: Медицина, 2002. – 236 с.
2. Михеев В. В. Нервные болезни. – М., 2014. – 263 с.
3. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. – М., 2013. – 374 с.
4. Лурия А. Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М.: МГУ, 2015. – 242 с.
5. Нейропсихология (тексты) / под ред. Б. Д. Хомской. – М.: МГУ, 2014. – 334 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.